

**Mullayeva Sitora Xolboy qizi**

NavDU 2-kurs talabasi

**Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi Sadikova Dildora taqrizi ostida**

---

## **XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDAGI SAMARALI USLUBLAR**

**Annotatsiya:** Til o'rganish - tubsiz chuqurlikka o'xshaydi, ichiga kirib borganingiz sari davom etaveradi. Ko'p yillardan beri, izlanishlar olib borilishi natijasida, til o'rganishning bir qancha samarali usullari ko'rib chiqildi va tahlil qilindi. Biz shulardan eng qo'l kelgan variantlarini ushbu maqolada keltirdik va ularning afzalliklari, kamchiliklari va qolaversa ular orasidagi bog'liqlikni ham ko'rsatib o'tdik. Izlanishlar davomida ko'plab kitob, maqola, internet saytlari va olimlarning fikrlariga duch keldik. Inson bir narsani o'rganishga qaror qilib harakat qilsa, natijasi yaxshi bo'lishini guvohi bo'ldik. Bu maqola nafaqat bizga, balki sizga ham manfaatli bo'lishiga ishonamiz.

**Kalit so'z va iboralar:** audio-lingual, onlayn, tashqi muhit, texnologiyalar, kommunikativ yondashuv.

**Annotation:** This article examines the approaches currently employed in language learning, emphasizing straightforward and efficient strategies. Additionally, using concrete examples, the connections between these approaches have been explored and debated.

**Keywords and phrases:** audio-lingual, online, external environment, technologies, communicative approach.

---

Kirish:

Global muhitda o'z karerasini yaratish, ko'plab rivojlangan davlatlarga sayohatlarni amalga oshirish, taniqli universitetlarda o'qish imkoniyatini yaratishning eng kuchli qiroli bu – xorijiy tillarni o'rganish hisoblanadi. Shuningdek, insonning ongli rivojlanishida, intellektual salohiyatini yaxshilashda chet tillarining o'rni beqiyos. Bundan tashqari, bitta chet tilini bilish dunyoqarashni o'stiradi, uning madaniyati, urf-odatlarini o'rganish imkonini ham beradi ("Refocusing Higher Education for Career Outcomes" (2019-yilgi hisobot)). Odamlarning fikricha, hamma ham til o'rgana olmaydi. Qaysidir ma'noda bu haqiqat, insonlarning qobiliyati turlicha, kimdir ijtimoiy va yana kimdir aniq fanlarga qiziqadi. Ammo inson oson yo'lini topsa, til o'rganishga ham o'zida ishtiyoq hosil qila oladi. Eng muhimi, harakatdan to'xtamaslik darkor. Mavzuni tahlil qilishdan oldin, maqolani yaxshiroq tushunish uchun usullar orasidagi bog'liqlikni, farqlarni, va qolaversa, har biri haqida malumotlarni ko'rib chiqish lozim.

### ***1-usul: Audio – lingual usul***

Bu usulning bir qancha foydali tomonlarini sanash mumkin, misol uchun: talaffuz va eshitish mahoratini rivojlantirish uchun yetakchi o'rinlarda turadi. Mashqlar va takrorlash orqali o'rganuvchilar qoniqarli natijalarni qo'lga kiritadi. Tinglovchi eshitgan ovozi orqali nutqini yaxshilaydi va muloqot qilish qobiliyatini kuchaytirish imkonini qo'lga kiritadi. Uning kamchilik tomoni shundaki, lug'at boyligi va yozish ko'nikmalari kam rivojlanadi. Bundan tashqari, bu usulning samaradorligini aniqlash uchun o'tkazilgan tadqiqotlar, undagi ba'zi kamchiliklarni ochib bergan. (International Journal of Scientific & Technology Research, 2020)

Bu usulda o'rganuvchilar hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirishuvchan bo'la olmaydi, chunki bu usul ko'proq dialog va qoidalarga asoslangan bo'ladi. Shuning uchun buni boshqa kommunikativ usullar bilan bog'lagan holda o'rganishni tavsiya qilishadi, shuningdek, ko'proq usullarni bilish kerakligi bunda o'z isbotini topadi.

### ***2-usul: Onlayn va texnologiyalardan foydalanish***

Bugungi texnologiyalar asrida onlayn platformalar, zamonaviy mobil ilovalar orqali til o'rganish ham bugungi kunning eng zamonaviy metodlaridan biri sanaladi. Har qanday joyda o'rganish imkoniyatini bergan - bu usul ko'plab o'rganuvchilar tomonidan ma'qullangan. Misol tariqasida, COVID – 19 davrida ko'plab abituriyentlar uyda turib, masofaviy ta'lim bilan yaxshi ko'rsatkichlarni ko'rsatgan. Buning uchun vaqtni taqsimlay olish, o'z ustida ishlay olish juda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar til o'rganuvchilarini o'ziga jalb qila oladi, qaysiki, AI va MOOC kabi ko'p qulayliklarni o'z ichiga olgan platformalar. Bu nafaqat o'rganuvchilarni mustaqil ta'limga unday oladi va shuningdek, bir qancha mavzulashtirilgan materiallarni ham taqdim eta oladi.

Kamchiliklar doirasida shuni aytish joizki, odamlar orasida onlayn texnologiyalarni ishlatish bilan bog'liq muammo tug'ilishi mumkin yoki texnik muammolarni hal qila olish qobiliyatini talab qiladi. O'zbekiston va shu kabi qator davlatlarda tadqiqotlar o'tkazish natijasida, bir qancha til o'rgatishga moslashgan texnologiyalar ishlab chiqildi. "Ibrat academy" ni misol tariqasida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu ham grammatika, ham sertifikatga tayyorlanishga mos keladigan materiallar bilan boyitilgan. O'rganishga juda qulay bo'lib, o'rganuvchilar tomonidan yaxshi baholangan.

Bu kabi metodlar o'quvchilarga individual o'rganish va darajasiga mos keladigan materiallarni tanlay bilish imkonini beradi.

### ***3-usul: Tashqi muhit orqali o'rganish***

Bu usul katta mas'uliyatni talab qilishiga qaramay, o'z qulayliklariga ega metod. Bu usulda til muhitida yashash, hayotiy vaziyatlarni shu til bilan bog'lash ya'ni vaziyatlarni o'rganilayotgan til bilan tahlil qilish, muhitini yaratish, tasavvur qilish talab etiladi. Bu usuldan ko'pchilik foydalana olmasligi mumkin, chunki oilaviy sharoit, moddiy tomonlama kamchiliklari, xorijga chiqa olish ehtimoli kamligi bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ammo uning foydalilik koeffitsienti boshqa metodlarga qaraganda ancha yuqori va chet el muhitini yaratish orqali til o'rganish ham qiziqarli ham maroqli kechadi.

### ***4-usul: kommunikativ usul***

Ushbu usulda til o'rganish manfaatli sanalib, amaliy suhbatlarga asoslanadi va o'rganigan bilimlarini muloqotda qo'llash imkonini yaratadi. Tilda tabiiy muloqotni yarata oladigan ushbu usulning, quvonarli natijalarini ko'rishimiz mumkin. Harmer o'zining "The practice of english language teaching" kitobida ham bu usulning tilni faol qo'llashga motiv bo'la olishi haqida fikrini bayon etgan. U buni talabalar uchun yanada interaktiv va qiziqarli qiladi, deydi. (Jeremy Harmerning "The Practice of English Language Teaching" , 1983)

Boshqa usullarga qaraganda, grammatikani chuqur o'rganishga kamroq e'tibor qaratishi bilan farqlanadi. Ellis o'z tadqiqotlari davomida bu masalani yuqori ko'targan va u kommunikativ yondashuv bilan birga grammatikani qo'shgan holda olib borish taklifini berdi. 2.( Ellis, 2003)

Xitoy va Janubiy Koreyada olib borilgan tadqiqotlar bu usulni amaliyotga kiritishda milliy til va madaniyat omillari e'tiborga olinishi kerakligini ko'rsatadi. (Marianne Celce-Murcia, Zoltán Dörnyei, va Sarah Thurrell, "Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model", 1995 )

### ***5-usul: Grammatik tarjima usuli***

Bu usul tarixan eng ko'p qo'llanilgan bo'lib, grammatik qoidalarga tayanib tarjima qilish orqali til o'rganishga asoslanadigan an'anaviy usul hisoblanadi. Tarjimonlik mashoratini hosil qilishda yordam beradigan ushbu metod, o'rganuvchilarni yozma tarjima va grammatik qoidalar bo'yicha tayyorlashdan iborat. Talabalar grammatik qoidalarni o'rganish orqali tilni yanada chuqurroq o'rganadilar, tuzulishini yaxshi tushunadilar.

Ammo bu metod XIX asrda keng foydalanilgan bo'lib, hozigi kunda zamonaviy yondashuvlar, masalan, kommunikativ usullar bilan o'rin almashgan. Shunga qaramay, ba'zi o'qituvchilar tomonidan ushbu usul hanuz qo'llanilmoqda.

Bu usullarning barchasi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, uning har birini o'qib, o'rganish tavsiya etiladi. Chunki tilni o'rganish davomida usullarni uyg'unlashtirish shu paytgacha juda samarali natijalarni bergan. Masalan, audio-lingual usul va onlayn texnologiyalarni birlashtirish o'rganishni osonroq va qiziqarliroq qiladi. Har qaysi ikki usulni bir-biriga bog'lagan holda til o'rganish yanada manfaatli bo'lishi tushuntirishlar davomida ta'kidlangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ushbu maqolani yozish davomida bir qancha veb-saytlar, boshqa maqola va kitoblar ko'zdan kechirildi. Uning natijasi shuni ko'rsatadiki, til o'rganish uchun qancha ko'p yo'l bilsak, u insonni shunchalik mushkulini oson qiladi. Bundan tashqari, chet tillarini o'rganish qanchalik keng imkoniyatlarni ochib berishini ham bilib olish mumkin.

Har bir ta'kidlangan usuldan o'quvchilar ehtiyojlariga ko'ra mosini tanlashlari, kamchilik va afzalliklarini ko'rib chiqib tillarni o'rganishlari mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "The Practice of English Language Teaching" Jeremy Harmer, 1983
2. "Refocusing higher education or career outcomes". Report , December 2019
3. "Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model" ,Marianne Celce-Murcia, Zoltán Dörnyei, and Sarah Thurrell, 1995, journal Issues in Applied Linguistics.
4. "Xorijiy tillarni o'qitishning yangi usul va uslublari" maqola October 29, 2024
5. "A review of direct method and audi-lingual method in english oral communication" international journal of scientific & technology research volume 9, august 2020
6. <https://ijstr.org/final-print/aug2020/A-Review-Of-Direct-Method-And-Audio-lingual-Method-In-English-Oral-Communication.pdf>
7. <https://ieeexplore.ieee.org/document/10438454>
8. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED604299.pdf>
9. <https://zenodo.org/records/14007301>